

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAMSHIYEVA NARGIZAXON NOSIRXO‘JA QIZI

OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание диссертации доктора наук (DSc)

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi

Oliy ta‘lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Шамшиева Наргизахон Носирхўжа кизи

Совершенствование методологии организации маркетинговой деятельности в высших образовательных учреждениях..... 33

Shamshieva Nargizakhon Nosirkhuja kizi

Improving the methodology of organizing marketing activities in higher education institutions..... 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 75

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHAMSHIYEVA NARGIZAXON NOSIRXO‘JA QIZI

OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Iqt68 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Axunova Gulchexra Nazarovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdullaev Ilyos Sultonovich

i

q

Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich

dotsent

s

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72); faks: (99871) 239-43-51; e-mail: admin@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi)

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d.,
professor

O.Dj.Djurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f. d.,
dotsent

T.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi bir
martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mehnat va mahsulotlar bozorlarida raqobatning keskin darajada ortib borishi, bu jarayonda mutaxassislar iqtisodiyot tarmoqlarining sifat jihatdan rivojlanishida asosiy omilligi sharoitida kadrlar tayyorlashga mas'ul bo'lgan oliy ta'lim muassasalarini istiqbol talablariga muvofiq holda barqaror rivojlantirish va samarali boshqarishga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Jahon banking ma'lumotlariga ko'ra "2000-yilda dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida jami 100 million talaba tahsil olgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugungi kunda 220 millionga yaqin talabani tashkil qilmoqda"¹. Bugungi kunda oliy ta'lim sohasini maqsadli rivojlantirish va boshqarish samaradorligini oshirishda aniq maqsadli va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan strategiyalar, jumladan, innovatsion marketing faoliyatini boshqarish strategiyalariga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda oliy ta'lim tizimini maqsadli rivojlantirish va boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi tadqiqotlar tarkibida innovatsion marketing faoliyatini boshqarish strategiyalari yo'nalishidagi izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada ta'lim sifati va uni zamonaviy texnologiyalarga ko'ra samarali boshqarish asosida tizim raqobatbardoshligini oshirishning marketing faoliyatini takomillashtirish, marketing natijalariga ko'ra iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ta'limning ahamiyatini baholash, bozor mexanizmlari asosida bitiruvchilar bandligini ta'minlashning marketing uslubiyotini takomillashtirish, marketing faoliyatini samarali boshqarish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim sifati oshirish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasida "oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish", "oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish", "korxonalar – oliygoh – ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish" va "ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash"² kabi vazifalar belgilab berilgan. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari (OTM) raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish va muassasalar jozibadorligini oshirish hamda ta'lim jarayoniga raqamli va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tabaqalashtirilgan holda qo'llash, oliy ta'limning innovatsion marketing faoliyatini boshqarishning metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation#1>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 7-martdagi PF-5687-son “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son “2019 – 2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-son “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-dekabrdagi 967-son “Oliy ta’lim muassasalarini bosqichma-bosqich o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Oliy ta’lim muassasalarining marketing faoliyatini tashkil etish takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahondagi bir qator yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Johns Hopkins universiteti, Garvard universiteti, Framingham State universiteti (AQSH), Cambridge Universiteti (Buyuk Britaniya), Beijing Institut of Fashion texnology (Xitoy), Vikram universiteti (Hindiston), Tamil Nadu Agricultural Universiteti (Hindiston), Kyoto universiteti (Yaponiya), Comilla Universiteti (Bangladesh), Yildiz Texnikal universiteti (Turkiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Dunyoda ta’lim muassasalarining marketing faoliyatini rivojlantirish, vertikal

³ Dissertatsiya ishida quyidagi bir qator xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan: The Digitalization of the World: From Edge to Core. An IDC White Paper-#US44413318. International Data Corporation; Nov 2018, www.itu.int, www.forrester.com, www.capgemini.com, mitsloan.mit.edu, eng.kist.re.kr, www.cnet.com, www.nielsen.com, www.kantar.com, accenture.com, www.mckinsey.com, www.ipsos.com, www.gfk.com, www.bcg.com, www.ieee.org, www.ibm.com/consulting, www.microsoft.com, www.sap.com, www.oracle.com

integratsiya tizimlarini yaratish, OTMlarning marketing faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: OTMlar marketing faoliyatini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari mijozlar bilan munosabatlarga asoslangan mexanizmlarga ko'ra takomillashtirilgan (Johns Hopkins University, AQSH); marketing faoliyatini raqamli transformatsiyalashning shaxsiylashtirish, o'zaro munosabatlar, buyumlar interneti (IoT), sun'iy intellekt innovatsion vositalari ishlab chiqilgan (Harvard University, AQSH); ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslari mijozlar xulq-atvor xususiyatlarini aniqlashga ko'ra takomillashtirilgan (Framingham State University, AQSH); xizmatlarga xos bo'lgan marketing menejmentining ilmiy-nazariy asoslari ko'p funksiyaviylik tamoyillari hamda rag'batlantiruvchi vositalarga ko'ra optimallashtirilgan (Cambridj University, Buyuk Britaniya); OTMlarning xalqaro reytinglari ilmiy-innovatsion salohiyat, tijoratlashtirish va texnologiyalar transferi hamda internetda onlayn mavjudlikni oshirishga ko'ra takomillashtirilgan (Beijing Instituti of Fashion Technology, Xitoy); OTM marketing infratuzilmasi talabalarga yo'naltirilgan shaxsiylashtirilgan xizmatlar majmuyini yaratishga ko'ra takomillashtirilgan (Vikram University, Hindiston); ta'lim xizmatlari bozorida talabni shakllantirish usullari mijozlar bilan o'zaro munosabatlar marketingiga ko'ra takomillashtirilgan (Yildiz Technical University (Turkiya).

Jahonda oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq muammolar bo'yicha, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda ustuvor darajada tadqiqotlar olib borilmoqda: OTMlar marketing strategiyasini ishlab chiqish metodologiyasini mijozlar bilan samarali va uzoq muddatli munosabatlar qurishga ko'ra takomillashtirish; muassasalar bozor faoliyatini boshqarish samaradorligini ilmiy-innovatsion faoliyatlarni maqsadli tijoratlashtirish hamda bilimlar transferini samarali tashkil etishga ko'ra oshirish; innovatsiyalar va innovatsion ekotizimlarni marketing konsepsiyalari asosida tashkil etish; ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali xizmatlar samaradorligi oshirish; "Marketing 4.0." va "Marketing 5.0." konsepsiyalarini universitetlar marketing faoliyatiga samarali joriy qilishning tashkiliy-marketing mexanizmlarini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalarda marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasining ilmiy-nazariy jihatlari ko'plab xorijiy olimlar, xususan, H. I. Ansoff, G. S. Day, A. D. Shoker, R. K. Srivastava, P. Kotler, H. Kartajaya, I. Setiawan, M. Y. Porter, N. Kumar, T. S. Robertson, H. Gatingon, F. Uebster va boshqa olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan⁴.

⁴ Ansoff H.I. *New Corporate Strategy*. N.Y, John Wiley and Sons, 1988.; Day G.S., Shoker A.D., Srivastava R.K. *Customer-Oriented Approaches to Identifying Product-Markets* // *Journal of Marketing*. 1979. №43. Pp. 8-19.; Kotler, Philip, Hermawan Kartajaya, and Iwan Setiawan. *Marketing 5.0: Tecnología para la humanidad*. LID Editorial, 2021. Kotler P., Kartajaya H., Setiawan I. *Marketing 4.0: moving from Traditional to Digital*. – John Wiley & Sons, 2016., Porter M. E. *Strategy and the Internet* // *Harvard Business Review*, March 2001, pp. 62-78.; Porter M. *How Competitive Forces Shape Strategy*. URL: <https://hbr.org/1979/03/how-competitive-forces-shape-strategy>.; Kumar N. *Marketing as strategy* // *Harvard Business School Press*, Boston. – 2004. – pp. 7-9.; Robertson T.S., Gatingon H. *Competitive Effects on Technology Diffusion* // *Journal of Marketing*. 1986. №50. Pp. 1-12.; Rogers E.M. *New Product Adoption and Diffusion* // *Journal of Consumer Research*. 1976. № 2.; Уэбстер Ф. *Основы промышленного маркетинга*. Перевод с англ. –М.: изд. Дом Гребенникова, 2005. — 446 с.;

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish, raqamli marketing vositalaridan foydalanish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha masalalari Bagiev G. L., Ababkova M. Yu., Gomayunova T. M., Baranovskiy A. I., Durovich A. P., Arnautova L. I., Glumova Ya. G., Dyudyukina A. M., Nikolaev V. K. kabi olimlarning ishlarida o'rganilgan⁵.

O'zbekistonda zamonaviy konsepsiyalar asosida korxonalarda, OTMLarda marketing faoliyatini tashkil etish, boshqarish va marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari iqtisodchi olimlar T. A. Akramov, A. Sh. Bekmurodov, M. R. Boltabaev, M. A. Ikramov, S. Salimov, A. Soliev, Z. A. Xakimov, Sh. Dj. Ergashxodjaeva, U. U. Sharifxo'jaev, M. Yusupov, G. N. Axunova, I. Nematov, G. S. Sa'dullaeva, D. Sh. Nishonov, O. Kahhorov, A. Ochilov, N. G. Zufarova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan⁶. Biroq mazkur tadqiqotlarda OTMLarning zamonaviy marketing konsepsiyalariga moslashuvchan boshqaruv strategiyalarini ishlab

⁵ Багиев Г.Л. и др. Маркетинг учебник. М. “Экономика”, 2001, 73.; Гайдаенко Т.А. Маркетинговое управление. –М., Эксмо, 2008. – 512 с.; Багиев, Г.Л. Маркетинг. Учебник для вузов. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2008. – 736 с.; Гомаюнова Т. М. Формирование и оценка эффективности управления комбинированной стратегией маркетинга в высших учебных заведениях России : дис. – автореферат диссертации, 2012.; Абабкова М. Ю. Маркетинговое обеспечение инновационного процесса в высших учебных заведениях : дис. – СПб. : [Рос. гос. пед. ун-т им. АИ Герцена], 2004.; Гомаюнова Т. М. Стратегия управления маркетинговой деятельностью в высшем учебном заведении //Актуальн Проблемы Реформирования Россия СКО... Экономика (теория, практика, перспектива). – 2011. – С. 56.; Барановский А. И. Методологические основы управления маркетингом непрерывного многоуровневого образования. – 2007.; Дурович А. П. Управление маркетингом в системе туризма Республики Беларусь: дис. – Белорусский государственный экономический университет, 2001.; Арнаутова Л. И. Формирование системы внутриорганизационного маркетинга для активизации инновационной деятельности вуза: магистерская диссертация : дис. – б. и., 2020.; Глумова Я. Г. Формирование и реализация маркетинговой стратегии вуза опорного типа на рынках услуг образовательного туризма //Практический маркетинг. – 2024. – №. 3. – С. 40-47. Дюдюкина А. М. Маркетинговая деятельность как основа стратегического управления высшим учебным заведением //Управленческий учет. – 2023. – №. 5. – С. 265-270.; Николаев В. К. Экспорт образования в вузах России в условиях новой реальности //Высшее образование в России. – 2022. – Т. 31. – №. 2. – С. 149-166.

⁶ Akramov T.A. Avtomobil sanoati korxonalarida marketing strategiyalarini takomillashtirish. 08.00.11 – marketing (iqtisodiyot fanlari). Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. TDIU, Toshkent, 2018-yil.; Bekmurodov A.Sh., Yanг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2006. – 112 с.; Boltabaev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: I.f.D. diss. Avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005.-35 b.; Soliev A. Buzrukhanov S. Marketing. Bozorshunoslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2010. 106 -576 b.; Xakimov Z.A. Engil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari. –T.; iqtisod-moliya, 2016 yil. 216 b.; Ergashxodjaeva Sh., Sharifxo'jaev U. Marketingni boshqarish. Darslik. — T.:Iqtisodiyot, 2019 y. 462 bet; Yusupov M., Abduraxmanova M.M. Marketing (ko'rgazmali o'quv qo'llanma) –T.: Iqtisodiyot, 2007 — 157 b.; Axunova G.N O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. Monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005.; Nematov, I. (2021). Oliy ta'lim tizimida marketing strategiyasi va uni ishlab chiqishning nazariy-uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 89–95. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss4/a138; Sa'dullayeva G.S. Oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing strategiyasi. 08.00.11 – Marketing, 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent, TDIU., 2021-y; Nishonov D. Sh. Oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari //Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T. 2022.; Kahhorov O. Oliy ta'lim muassasalari marketing faoliyati samaradorligini boshqarish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019-yil; Ochilov A. O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash yuzasidan takliflar//Экономика и инновационные технологии. – 2019. – №. 4. – С. 125-136.; Zufarova N.G. Ta'lim tizimi transformatsiyasi jarayonida oliygohlar brend kapitalini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.11–“Marketing”, 08.00.05 – “Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi. Iqtisod fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiydarajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TDIU, Toshkent – 2024.

chiqishga, ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № IL-662204328 "Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish" mavzusidagi (01.01.2024-31.12.2024-yil) ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bozor subyektlarining marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish nazariyalari va zamonaviy konsepsiyalarini aniqlash;

oliy ta'lim muassasalari innovatsion iqtisodiyotning drayveri sifatidagi rolini ko'rsatib berish;

OTMlarining marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarishga ilmiy-nazariy yondashuvlarni sharhlash;

oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan marketing faoliyatini tashkil etishning zamonaviy usul va yondashuvlarini tizimlashtirish;

OTMlarning innovatsion ta'lim loyihalari asosida raqobatbardoshligini oshirishning marketing muammolarini aniqlash;

universitetlarda ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalashuv modellaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini belgilab berish;

O'zbekiston OTMlarning ilmiy-texnik rivojlanish dinamikasi va marketing faoliyatini tashkil etishning amaldagi mexanizmlarini aniqlash;

OTMlarining intellektual salohiyati, ilmiy faoliyatini va innovatsion tizimini shakllanish holatini tahlil qilish;

mahalliy OTMlarning ilmiy-innovatsion mahsulotlarini tijoratlashtirish faoliyatini tashkil etish tizimini takomillashtirish;

universitetlarning talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yondashuvlarni aniqlash;

universitetlarning ilmiy-innovatsiyalar bozoriga samarali kirishga yo'naltirilgan marketing vositalarini ishlab chiqish;

O'zbekiston universitetlari uchun Transformatsiya markazining konseptual modelini yaratish asosida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda faoliyat yurituvchi oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida bilish dialektikasi, nazariy-empirik, mavhum, retrospektiv, induksiya va deduksiya, tahlil, kuzatish, guruhlash, regressiya-korrelyatsiya, indeks, grafik tasvirlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

metodologik yondashuvga ko‘ra “oliy ta’lim muassasasining marketing faoliyatini boshqarish” tushunchasi metodologik jihatdan muassasaning xalqaro nufuzini tizimli ravishda oshirib borish va brend imijini yaratishda marketing faoliyatini tashkil qilish asosida takomillashtirilgan;

zamonaviy universitetning marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasi integratsiyalashgan, markazlashtirilgan, innovatsiyalar yaratishning ko‘p funksiyaviylik tamoyillariga va Universitet 3.0 metodologiyasiga mos keluvchanligini oshirish asosida takomillashtirilgan;

universitetning marketing faoliyatini tashkil etish tizimi maqsadli mijozlar oqimi multiplikator (abiturientlar – talabalar – bitiruvchilar) va akselerator (g‘oya – innovatsiya – tijoratlashuv-diffuziya)larga moslashuvchan funksional vazifalar asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish asoslangan;

ta’limni talabalarga yo‘naltirishning “Marketing – 4C”ga metodologik yondashuvi muassasaning brend siyosatida ilmiy faoliyatda talabalar moslashuvchanligini oshirish hamda akademik, ilmiy, ma’naviy va tashkiliy funksiyalarni samarali tashkil etishda har bir funksional elementga alohida vazifa obykti sifatida qaralishiga ko‘ra takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarining xalqaro miqyosda nufuzini oshirib borish, reytinglarda munosib o‘rinni egallashi va xorijiy talabalarni keng miqyosda jalb qilishga yo‘naltirilgan “Universitet 3.0” modeli milliy ta’lim muassasalarining brend imiji va ilmiy loyihalar natijalarini amaliyotga joriy etish kabilarga ko‘ra takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

marketing konsepsiyalarini OTMda tatbiq etish va zamonaviy marketing strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

OTMda innovatsion marketing faoliyatini boshqarish modelini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

OTMda innovatsion marketingni raqamli va onlayn marketingini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari asoslangan;

OTMni innovatsion marketing faoliyatiga ko‘ra samarali boshqarishni e’tiborga olgan holda universitetlarning Transformatsiya markazi uchun marketing funksiyalari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Davlat statistika agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy hisobotlaridan olinganligi, tahliliy xulosalar va takliflarning matematik-statistika usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asoslangan xulosalar va tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasi va uslubiy apparatini takomillashtirishga hamda mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalar OTMning innovatsion faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish, iqtisodiyot yo'nalishidagi OTMda o'quv adabiyotlarini, jumladan, "Marketing" va "Marketingni boshqarish" fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalari va darsliklarni tayyorlashda, marketingni boshqarish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

metodologik yondashuvga ko'ra "oliy ta'lim muassasasining marketing faoliyatini boshqarish" tushunchasi metodologik jihatdan muassasaning xalqaro nufuzini tizimli ravishda oshirib borish va brend imijini yaratishda marketing faoliyatini tashkil qilish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflardan oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketingni boshqarish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 21-dekabrda 387-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan №387-02-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Mazkur taklif ta'lim xizmatlari marketing faoliyati metodologik jihatdan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida baholagan holda muassasaning xalqaro nufuzi va o'z brend imijini ta'minlashda marketing resurslari va ta'lim xizmatlari bozori imkoniyatlaridan optimal foydalanishning uslubiy asoslarini takomillashtirgan holda faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy universitetning marketing faoliyatini boshqarish metodologiyasi integratsiyalashgan, markazlashtirilgan, innovatsiyalar yaratishning ko'p funksiyaviylik tamoyillariga va "Universitet 3.0" metodologiyasiga mos kelishini oshirish asosida takomillashtirish bo'yicha berilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-iyuldagi 04/04-2012 raqamli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar davlat universitetlarida ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va "Universitet 3.0" bo'limlari faoliyatini samarali tashkil etish va jami yaratilgan innovatsiyalardan universitetlar ulushini oshirishning strategik maqsadlarini ishlab chiqishda hamda universitetlarning marketing va karera bo'limlari faoliyatini takomillashtirishda foydalanilgan;

universitetning marketing faoliyatini tashkil etish tizimi maqsadli mijozlar oqimi multiplikator (abituriyentlar – talabalar – bitiruvchilar) va akselerator (g'oya – innovatsiya – tijoratlashuv-diffuziya)larga moslashuvchan funksional vazifalar asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish asoslanganligi bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida innovatsion faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-iyuldagi №04/04-2012-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida universitetlarning ilmiy-innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo'limlari faoliyati takomillashtirilgan va innovatsiyalar bozorida OTMlarning ulushini 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 1,2 foizga oshirishga erishilgan;

ta'limni talabalarga yo'naltirishning "Marketing – 4C"ga metodologik yondashuv muassasaning brend siyosatida ilmiy faoliyatda talabalar moslashuvchanligini oshirish hamda akademik, ilmiy, ma'naviy va tashkiliy funksiyalarni samarali tashkil etishda har bir funksional elementga alohida vazifa obyekt sifatida qaralishiga ko'ra takomillashtirish taklifi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-iyuldagi 04/04-2012-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik-ilmiy faoliyatining talabalar uchun moslashuvchanlik darajasini ortishiga, natijada universitetning milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligining ortishiga, xalqaro reytinglarda pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarining xalqaro miqyosda nufuzini oshirib borish, reytinglarda munosib o'rinni egallashi va xorijiy talabalarni keng miqyosda jalb qilishga yo'naltirilgan "Universitet 3.0" modeli milliy ta'lim muassasalarining brend imiji va ilmiy loyihalar natijalarini amaliyotga joriy etish kabilarga ko'ra takomillashtirish bo'yicha taklif Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining marketing faoliyatiga hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Universitet 3.0" xalqaro o'quv, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi amaliyotiga (Kengash qarori 28.08.2019-y., №1; buyruq №664/2) joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 17-iyuldagi 04/04-2012-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur takliflar, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining xalqaro reytinglarga, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yilda "QS stars" reyting tizimida eng yuqori 5 yulduz bilan taqdirlanishi va 2024 yilda ham mavqeyini saqlab turishi, QS WUR Asia reytingida Osiyo qit'asida 401-450 o'rinni, Markaziy Osiyo OTMlari orasida 23 o'rinni, O'zbekiston OTMlari orasida 3 o'rinni qayd etishiga, "THE WUR Reporter", "THE Asia Reporter", "THE Impact ranking 801-1000" maqomlarini saqlab turishi va raqobatbardoshligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 15 ta maqola (11 tasi mahalliy va 4 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 203 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning

ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”**, deb nomlangan bo'lib, unda bozor subyektlarining marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish nazariyalari va zamonaviy konsepsiyalari aniqlangan. Oliy ta'lim muassasalari innovatsion iqtisodiy rivojlanish drayveri sifatida roli va ahamiyati ochib berilgan. Oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha uslubiy yondashuvlar tizimlashtirilgan.

Zamonaviy iqtisodiyot innovatsion jarayonlarning faol ta'siri ostida shakllanadi, ularning faollashishi iqtisodiy faoliyatning deyarli, barcha sohalarda kuzatiladi. Oliy ta'lim ham bundan mustasno emas. Globallashuv sharoitida universitetlarni marketing faoliyatini boshqarishning innovatsion strategiyasini shakllantirish va rivojlantirish muammolari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida nafaqat ko'rib chiqilishi, balki alohida innovatsion sohalarga ta'siri va bu ta'sirlarni yanada oshirish mexanizmlari yaratilishi lozim.

Zamonaviy bilimga asoslangan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida innovatsiyalarning mohiyati va turlari o'rganilib, bu yerda yangi bilimlarni to'plash shaklidagi oliy ta'lim innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning zaruriy sharti sifatida maydonga chiqadi. Oliy ta'lim innovatsion ta'lim makonida faoliyat yurituvchi jarayon, natija va ta'lim tizimi sifatida, ta'lim faoliyati subyektlari va ularning o'zaro munosabatlari tizimining dinamik birligi hisoblanadi. Oliy o'quv yurtida milliy innovatsion tizimning eng muhim qismi bo'lgan bilimlarni yaratish, uzatish, diffuziya va integratsiya mavjud bo'lib, uning natijalari kreativ mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy muammolarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etishdir. Universitetlar va iqtisodiyotning dialektik aloqasi, shuningdek, innovatsion iqtisodiyot, o'z navbatida, universitetlarda innovatsiyalarning rivojlanishiga hissa qo'shishida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda milliy oliy ta'lim tizimini isloh qilishning obyektiv shartlari va yo'nalishlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: universitetlarning mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish; imtiyozli budjetdan moliyalashtirishdan diversifikatsiyalangan budjetdan tashqari manbalarga o'tish; ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini o'zgartirish va moliyaviy resurslarni universitetlar ichida taqsimlash; ta'lim, ilmiy muassasalar, davlat va biznes tuzilmalarining strategik sherikligini rivojlantirish; oliy o'quv yurtlarining innovatsion faolligini oshirish, ular asosida innovatsion iqtisodiyotda milliy universitetlarning faoliyat ko'rsatish xususiyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish yo'nalishlari asoslanadi. Bunday faoliyatlarni amalga oshirish uchun universitetlarning marketing faoliyatini boshqarishga bo'lgan yondashuvlar milliy ta'lim tizimni dialektik qayta o'zgartirishni doimiy taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan OTMlarning innovatsion marketing faoliyatini boshqarish zaruriyati paydo bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'limda marketingni boshqarishning asosiy yo'nalishlari ta'lim tashkilotining “inson kapitali” raqobatbardoshligini oshirish va ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish jarayonining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat,

umuman olganda, ma'lum bir universitetning noyob taklifi qiymatining o'sishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatlar tushuniladi. "Marketingni boshqarish – bu maqsadli marketing ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotining marketing kompleksini shakllantirish, amalga oshirish, nazorat qilish va sozlash jarayonidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra ta'limda marketing menejmenti – ta'lim tashkilotining qiymat taklifi doirasida mehnat bozori ehtiyojlarini yuqori malaka darajadagi istiqbolli mehnat resurslarining shakllantirish va ularning milliy innovatsion tizimdagi ahamiyatini oshirishga qaratishni talab etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, metodologik yondashuvga ko'ra "oliy ta'lim muassasasining marketing faoliyatini boshqarish" deganda ta'lim muassasalarining xalqaro nufuzini tizimli ravishda oshirib borish va brend imijini yaratishda marketing faoliyatini tashkil qilish nuqtai nazaridan qaralishi lozim. Mazkur yondashuv ta'lim xizmatlari marketing faoliyati metodologik jihatdan innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida baholagan holda muassasaning xalqaro nufuzi va o'z brend imijini ta'minlashda marketing resurslari va ta'lim xizmatlari bozori imkoniyatlaridan optimal foydalangan holda faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

Zamonaviy marketingni boshqarishga bo'lgan yondashuvlar esa nafaqat bozor subyektlari manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan marketing elementlaridan foydalanishni, bu esa mijozlarga yuqori naf yaratishga qaratilgan boshqaruvni amalga oshirishni talab etadi.

Zamonaviy milliy innovatsion tizim – bu innovatsiyalar rivojlanishini ta'minlovchi tashkiliy, qonunchilik, tarkibiy va funksional komponentlar yig'indisidir. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi shakllanish bosqichida va innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun barcha zarur asosiy elementlarga ega mamlakatlardan biridir. O'zbekistonning katta ustunligi – aholining umumiy ma'lumot darajasi va ilmiy salohiyatning mavjudligidir. O'zbekiston savodxonlik darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan davlatlari bilan bir qatorda turadi. Mustaqillikdan keyingi davrlarda respublikada ilmiy, ilmiy-texnikaviy va innovatsion salohiyatni saqlash va rivojlantirish borasida maqsadli ishlar va ko'plab islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, fanni boshqarish tizimi takomillashtirish, ilmiy va innovatsion faoliyatning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasini zamonaviy asosda kengaytirish va mustahkamlash, akademiya va universitetlar faoliyatlarini tizimlashtirish va qayta tashkil etish chora-tadbirlari ko'rilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishda innovatsiyalar darajasini oshirish, axborot-innovatsion infratuzilmani, fan talab qiluvchi korxonalarni, yuqori texnologiyalar majmuasini rivojlantirishga yuqori ahamiyat berilgan. Ilmiy-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantirish choralari ko'rilgan.


Ammo shu bilan birga, innovatsion faoliyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ko'plab omillar mavjud, ular orasida moliyaviy resurslarning taqchilligi, yangi texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlarning etishmasligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi, yangiliklarning yuqori narxi, innovatsion tovarlar va xizmatlarga talabning pastligi, yuqori iqtisodiy xavf, malakali xodimlarning etishmasligi va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlari sifatida

“oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish”, “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo’shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan asosiy islohotlarda Oliy ta’lim bilan qamrovini yuqori o‘shirishga erishilgan, jumladan, 2023-yilda 50 foiz.

O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimni yaratishning innovatsion ekotizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan “tubdan yangilovchi”, “barqaror” va “samarador” innovatsiyalardan tarkib topgan iqtisodiyot qurishga asoslangan yo‘nalish davom etmoqda. Ta’lim faoliyatining miqdoriy o‘shishi va sifatni ta’minlash darajasi har doim ham jadal rivojlanayotgan mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob bermaydi.

Ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish murakkab, ziddiyatli bo‘lib, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari yoki xizmatlar sohasining bozor tan oladigan ko‘pgina tarmoqlarini boshqarishga nisbatan qiyinroqdir. Asosiysi, ta’limda nafaqat bozor uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan cheklanadi, balki jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va boshqa ehtiyojlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan mehnat resurslarini tayyorlash va takomillashtirib borishni amalga oshiradi. Shu sababli ta’lim tizimini boshqarish, ta’lim xizmatlari bozorini tartibga solish va uni zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida tashkil etishda ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan va ularning ehtiyojlari nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

Ta’lim tashkilotlarining marketing faoliyatini boshqarish barcha bozor tizimlari bilan o‘zaro uyg‘unlik kasb etgan xolda ko‘rib chiqishni talab etadi va unda ta’lim xizmatlari bozori markaziy o‘rinni egallaydi (1-rasm).




1-rasm. Ta’lim xizmatlari bozorida marketingni boshqarish muammolari, funksiyalari va roli⁷.

Universitet-jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini asosiy drayveri sifatida quyidagi asosiy missiyalarni amalga oshiradi: ta’lim+ilmiy tadqiqot+bilimlar transferiga asoslangan tijoratlashtirish maqsadlari asosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantiradi. Zamonaviy universitetlar (a) ta’lim; (b) fan; (v) innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati uyg‘unligiga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanib, innovatsion iqtisodiyotni yaratishni asosiy subyekt sifatida maydonga

⁷ Muallif ishlanmasi.

chiqadi. Zamonaviy universitetlarni “Tadbirkorlik universitetlari” deb nomlash ham qabul qilingan. Shu jihatlarni inobatga olganda universitetlarning marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish zaruriyati innovatsiyalar bozoridagi samarali faoliyatni tashkil etishga qaratilishi lozim. Universitetlarning mazkur yo‘nalishlarga moslashuvchan marketing faoliyatini tashkil etish uchun zamonaviy metodologik yondashuv zarur. 2-rasmda zamonaviy universitetlarning marketing konsepsiyalari taklif etilgan.



2-rasm. Zamonaviy universitetlarning marketing konsepsiyalari⁸.

Innovatsion universitetlar uchun marketing konsepsiyalari o‘zlarining ilg‘or tadqiqotlar, texnologik yutuqlar va tadbirkorlik ruhi bilan bog‘liq noyob atributlarini namoyish etishga katta e‘tibor berishga qaratilishi lozim. Ushbu marketing konsepsiyalaridan foydalangan holda, innovatsion universitetlar o‘zlarining kuchli tomonlarini samarali muloqot qilishlari, yuqori iste‘dodlarni jalb qilishlari, hamkorlikni rivojlantirishlari va texnologik taraqqiyot va jamiyatga ta’sir qilishda yetakchi sifatida obro‘ sini saqlab qolishlari mumkin. Zamonaviy universitetlarning marketing strategiyasi keng qamrovli bo‘lishi va tadqiqot, texnologiya, tadbirkorlik va jamiyatga ta’sir qilishdagi noyob kuchli tomonlariga mos kelishi kerak.

⁸ Muallif ishlanmasi.

Umuman olganda, zamonaviy universitet tomonidan marketing menejmentini tashkil etishga to'g'ridan-to'g'ri tizimli yondashuvda ta'lim tashkilotlari faoliyatining aniq marketing natijalari, tarmoq marketing strategiyalarining yo'nalishlari va shakllari bilan amalga oshirish talab etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini tashkil etishning ilmiy metodologik asoslari”**, deb nomlangan bo'lib, unda Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan marketing faoliyatini tashkil etishning zamonaviy usul va yondashuvlari aniqlangan. Oliy ta'lim muassasalari muassasalarining innovatsion ta'lim loyihalari asosida raqobatbardoshligini oshirishning marketing muammolari aniqlangan. Oliy ta'lim muassasalari marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.


Zamonaviy ta'lim xizmatlari bozoridagi marketing quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim: ta'limning eng samarali variantlarini izlash; bitiruvchini kasb bilan tanishtirishni o'zgartirish; bozorni o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini amalga oshirish; iqtisoddagi tuzilmaviy siljishlar asosida mutaxassislariga bo'lgan talabni shakllantirish; respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivoji strategik maqsadlariga erishish darajasini muntazam kuzatib borish; investitsiya siyosati, korxonalarining xo'jalik mustaqilligi, ular reytingi va bu jarayonlarni tashabbuskorlik tadbirkorlik faoliyati, rivojlanayotgan bozor hamda muntazam o'zgartirib turuvchi biznes bilan birgalikda idrok etish; to'laqonli marketingni amalga oshirish uchun, keng miqyosli axborot o'ta zarur.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish uchun integratsiyalashgan yagona savdo taklifini shakllantirish va ilgari surish orqali marketing joylashuvi ta'lim tuzilmalari faoliyati natijalari, ish beruvchilarning mehnat bozoridagi talablarini samarali birlashtirishni ta'minlaydigan vositalardan foydalanish talab etiladi. Integratsiyalashgan mahalliy ta'lim tuzilmasining noyob savdo taklifi o'zining ko'p qirraliligi va xilma xilligi tufayli mehnat bozori talablarini qondirishni ta'minlaydi. Bunda ta'lim xizmatlari bozorida taklifni shakllantirish jarayonida mahalliy ta'lim tizimi ishtirokchilarning marketing strategiyalari va faoliyatini uyg'unlashtirish va integratsiyasi asosda vujudga keladi.

Ushbu yondashuvning samarasi iste'molchilarning ta'lim darajalari (o'rta umumiy yoki kasbiy – oliy – qo'shimcha) o'rtasida o'tish qobiliyatini yengillashtirishdir, shuningdek, ayirboshlash nuqtayi nazaridan tizim ishtirokchilari tomonidan tizimli raqobatdosh ustunlikni amalga oshirish, iste'molchi talabini yoki uning axborot parametrlarini konvertatsiya qilishdir. Shu bilan birga, marketing funksiyalarining haqiqiy integratsiyalashuvi yoki butun mahalliy ta'lim tizimi uchun marketingni boshqarish funksiyasini amalga oshiradigan yagona strategik marketing markazini yaratish orqali ta'limning asosiy funksiyalari shakllantiriladi.

Universitetlarning marketingni tashkil etish funksiyalarining integratsiyasi **“Universitet – ta'lim dasturlari – bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi”** asosida tashkil etilishi lozim (3-rasm).

Zamonaviy universitetda marketing menejmentini tashkil etish nafaqat boshlang'ich mijozlar guruhiga nisbatan faollikni talab qiladi va iste'molchi talabini faollashtirish va talabnoma beruvchi mijozlar oqimini shakllantirish bilan tugamaydi.



3-rasm. Mahalliy va ta'lim tizimida marketingni boshqarish funksiyalarining integratsiyalashgan shakli⁹.

Ta'lim xizmatlari va mahsulotlariga mahalliy va mintaqaviy talab, asosan, budjet va hududiy jihatdan maqsadli mijozlar guruhlarining to'lov qobiliyati bilan cheklangan, ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning dastlabki darajasida talabnoma beruvchilar oqimini shakllantirish uchun asos bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarining rivojlanishi va marketing faoliyatini tashkil etish holati”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston OTMlarning ilmiy-texnik rivojlanish dinamikasi va ilmiy-innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlari statistik tahlil qilingan. Oliy ta'lim muassasalarining

⁹ Muallif ishlanmasi.

intellektual salohiyati, ilmiy faoliyatini va innovatsion tizimini shakllanish holati tahlili qilingan. Mahalliy OTMlarning ilmiy-innovatsion mahsulotlarini tijoratlashtirish faoliyatini tashkil etish tizimidagi asosiy muammolar aniqlangan.

So‘nggi yillar davomida oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ammo ijobiy o‘zgarish va amaliy ishlar bilan bir qatorda o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy universitetning vazifasi talabalarni o‘qitish emas, ularni o‘qishga, mustaqil fikrlashga, muammolarning yechimini izlab topishga, ma‘lumotlarni tahlil qilib, xulosalar hamda qarorlar qabul qilishga o‘rgatishdan iborat bo‘lishi kerak. Ammo aksariyat oliy ta‘lim muassasalarida hali ham eski uslubda hamma narsani faqat auditoriyada berish, o‘z bilimlari doirasidagina bilimlarni transformatsiya qilish holatlari kuzatilmoqda. Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar respublikamizning ta‘lim xizmatlari bozori hamda mehnat bozori talablarini to‘liq qondirish imkonini bermayapti.


So‘nggi 5 yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrovini oshirish maqsadida yangi 84 ta oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, 52 ta mahalliy, 10 ta nodavlat va 22 ta xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining filiallari tashkil etildi va ularning jami soni 156 ta yetdi. Respublikamizda 2017-yilda 5 ta, 2018 yilda 15 ta, 2019-yilda 19 ta, 2020-yilda 21 ta, 2021-yilda 26 ta, 2022-yilda 29 ta, 2023-yilda 32 ta yangi oliy ta‘lim muassasasi tashkil etildi. Yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasi 2010-yilda 14,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 8,7% ni tashkil etdi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2023-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 51% ga yetdi (4-rasm).

Ammo ushbu ko‘rsatkich ham bir qator mamlakatlarning ko‘rsatkichlaridan anchagina past hisoblanadi. Jumladan, Serbiyada 97,4%, Yangi Zelandiyada 95,6%, Turkiyada 92,3%, Chilida 87,9%, Shveysariyada 86,9%, Daniyada 85,4%, Belarusda 84,4%, Rossiyada 84,2%, Yaponiyada 81,1%, Qozog‘istonda 69,2% ni tashkil etadi¹⁰.

Oxirgi yillarda qabul parametrlarini keskin oshirilishi oliy ta‘lim muassasalaridagi talabalar sonini hamda professor-o‘qituvchilar sonini ortishiga olib keldi. 2021-2022-o‘quv yilida talabalar soni 747588 nafarga professor-o‘qituvchilar soni esa 31092 nafarga yetdi. 2021-2022-o‘quv yilida talabalarining umumiy soni 2011-2012-o‘quv yiliga nisbatan qariyb 3 barobarga, professor-o‘qituvchilar soni esa 1,4 martaga oshgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, talabalar soni professor-o‘qituvchilar soniga nomutanosib ravishda ortgan.

So‘nggi besh yilda davlat oliy ta‘lim muassasalariga to‘lov-kontraktlar asosida to‘langan pul mablag‘lari miqdori deyarli 5 barobarga oshgan. Ushbu o‘shish o‘qishga qabul qilish parametrlarini keskin oshirilganligi, shuningdek, tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida qabul qilish tizimi joriy etilganligi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda bazaviy to‘lov-kontrakt miqdori bir talabaga to‘g‘ri keladigan o‘qitish xarajatlarining o‘rtacha hisobda 70% ni qoplamoqda.

¹⁰ http://data.uis.unesco.org/Index.aspx?DataSetCode=EDULIT_DS



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari soni va oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi¹¹.

Innovatsiyalarni joriy etish borasida OTMlarning salohiyati ham yillar davomida oshib borgan. Faoliyat sektorlari bo‘yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi 2018 yilda 680 038,0 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 1 069 676,5 mln. so‘mni tashkil etgan. Bajarilgan tadqiqot ishlarida oliy ta’lim muassasalarining ulushi 2018-yilda 10,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa 2023-yilda bu ko‘rsatkich 18,1 foizni tashkil etgan. Tendensiyadan ma’lum bo‘ladiki, OTMlarning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish hajmi yillar davomida boshqa sohalarga qaraganda yuqori o‘shishga erishgan. Mazkur holatlar mamlakatda OTMlarning ilmiy tadqiqotlar ishlarini bajarishga rag‘batlantirish choralarini ko‘rish va ilmiy darajali tadqiqotchilarning salmog‘ini yillar davomida oshib borishi asosiy sabab bo‘lgan.

Mazkur holatlar OTMlarda nafaqat kadrlar tayyorlash xizmatlariga bo‘lgan talabning ortib borishi, balki ularning ilmiy tadqiqotlarga ham talab yuqori shakllanayotganligini bildiradi. Shunga ko‘ra universitetning marketing faoliyatini tashkil etish tizimida kadrlar tayyorlash va akselerator innovatsiyalar bozoridagi talabni maqsadli qondirishga qaratilgan marketing funksiyalari bilan to‘ldirilishi lozim. Universitetning marketing faoliyatini tashkil etish tizimi maqsadli mijozlar oqimi multiplikator sifatida (abituriyentlar – talabalar — bitiruvchilar) marketing faoliyatini tashkil etish an’anaviy modelga xosdir. Universitetlarning asosiy faoliyati ta’lim berishga va innovatsiyalarni tijoratlashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Mazkur holat esa universitetlarda xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish va maqsadli innovatsiyalar bozoridagi faollikni oshirish orqali erishiladi. Shunga ko‘ra, universitetlarning innovatsiyalar bozorida faolligini oshirish orqali akselerator samarasi yuzaga chiqadi. Bunday samarali real sektordagi asosiy innovatsion muammolarni hal qilish va shakllangan talabni o‘z vaqtida samarali qondirish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan universitetlarning marketing faoliyatini tashkil etish (g‘oya – innovatsiya – tijoratlashuv-diffuziya)larga moslashuvchan funksional vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyat alohida tarkibiy bo‘linma sifatida shakllantirilishi lozim.

¹¹ Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Faoliyat sektorlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi¹³

Yillar	Birligi	Jami	Davlat sektori	Tadbirkorlik sektori	Oliy ta'lim sektori	Xususiy notijorat sektor
2018	mln. so'm	680038	185403,9	414527,9	74036	6070,2
	ulushi, %	100	27,3	61	10,9	0,9
2019	mln. so'm	853404,4	314694,7	429183,7	106722,2	2803,7
	ulushi, %	100	36,9	50,3	12,5	0,3
2020	mln. so'm	992029,1	380808,7	480005	126470,7	4744,7
	ulushi, %	100	38,4	48,4	12,7	0,5
2021	mln. so'm	1069676,5	395841	479907,4	184509,9	9418,2
	ulushi, %	100	37	44,9	17,2	0,9
2022	mln. so'm	1225672,1	493543,4	512646	210727,3	8755,5
	ulushi, %	100	40,3	41,8	17,2	0,7
2023	mln. so'm	1356426,1	563285,9	537341,9	245844,3	9954
	ulushi, %	100	41,5	39,6	18,1	0,7


Aksariyat universitetlarda innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetning ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi 4 ta asosiy yo'nalishda faoliyat olib boradi: korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda xo'jalik shartnomalarini bajarilishi muvofiqlashtiradi; ilmiy-tadqiqot loyihalari asosida universitetga grant mablag'larini jalb etadi; startap loyihalarini bajarilishini boshqaradi; texnologiyalar transferi.

Universitetlarning innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo'limida marketingni tashkil etish universitet tadqiqotlari va innovatsiyalarini turli manfaatdor tomonlarga, jumladan, sanoat hamkorlari, investorlar va keng jamoatchilikka samarali targ'ib qilish va yetkazish uchun jamoalar va funksiyalarni tuzishni o'z ichiga oladi.

Universitetlarning ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni marketing qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni to'liq amalga oshirish uchun o'z vakolatlari doirasida xizmatlar ko'rsatishning tartiblangan sxemasi va mexanizmlariga ega bo'lishi kerak. Universitet uchun innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha taklif etilayotgan marketing mexanizmi innovatsion marketing va marketing usullarining asosiy funksiyalarini o'z ichiga oladi, ular marketing faoliyatini tashkil etish yondashuvlari va usullari to'plamini (marketing tadqiqot usullari, narxlash usullari, joylashishni aniqlash usullari, kontent marketingi usullari, va boshqalar). Ushbu mexanizmni amalga oshirish jarayonida, dastlabki bosqichda, ilmiy yangilik parametrlari va davom etayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining istiqbollarni nazorat qiluvchi innovatsion loyihalarni tijoratlashtirish bo'limi tomonidan g'oyalarni izlash amalga oshiriladi. Kelajakdagi talabni baholash uchun tanlangan g'oyalar ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limiga o'tkaziladi, u yerda bozor tahlili amalga oshiriladi. Mazkur bo'lim innovatsion g'oyani ilmiy ekspertizadan o'tkazish, bozor konyunkturasi tahlil qiladi, bozor imkoniyatlarini tahlil qiladi, keraksiz ehtiyojlarni filtrlash uchun sifatli tadqiqotlar o'tkazadi va pirovardida innovatsiyani joriy etishning strategik maqsadlarini belgilaydi (5-rasm).

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.



5-rasm. Oliy ta'lim muassasalari uchun innovatsiyalarni tijratlashtirishning marketing mexanizmi¹⁴.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Ushbu markaz ma'lumotlar bazalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan tadqiqotlar olib boradi, patent qidiruvlarini amalga oshiradi va intellektual mulkni ro'yxatga olish tartibi bilan shug'ullanadi. Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish davrida bozor kon'yunkturasi o'zgarishi to'g'risida ma'lumot beradi, narx strategiyasini ishlab chiqadi va intellektual mulk obyektlarining potensial xaridorlari bo'yicha tavsiyalar beradi. Shuningdek, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish markazi innovatsion mahsulot bozoriga kirishga tayyorgarlik ko'radi, ya'ni marketing kommunikatsiyalarini tavsiflovchi marketing rejasini tuzadi va uni ilgari surish uchun budjetni belgilaydi.

Innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishning marketing samarasini baholash intellektual mulk obyektlarini sotishdan olingan daromadni va tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadni marketing innovatsiyalari xarajatlarini (bozor tahlili, marketing miks) chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Ushbu aniqlangan qiymat esa universitetlarning umumiy faoliyatini akselerator samarasini yuzaga chiqarib, ta'lim xizmatlarini kuchaytiruvchi ahamiyatga ega bo'lib boradi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun davlat shartnomalari tuzilganda va ishlab chiqarishni yaratish uchun tekin grantlar olingan taqdirda, xarajatlarning umumiy miqdori olingan grant miqdoriga nisbatan kamayib boradi, bu esa innovatsiyalarni tijoratlashtirish uchun marketing mexanizmini joriy etishning iqtisodiy samarasini oshirishga olib keladi.

Tadqiqot ishining to'rtinchi bobi "**Oliy ta'lim muassasalarining marketing faoliyatini samarali tashkil etishning strategik va ustuvor yo'nalishlari**", deb nomlangan bo'lib, unda universitetlarning talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yondashuvlar aniqlangan. Universitetlarning ilmiy-innovatsiyalar bozoriga samarali kirishga yo'naltirilgan marketing vositalarini taklif etilgan. O'zbekiston universitetlari uchun Transformatsiya markazining konseptual modelini yaratish asosida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlangan.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan amaldagi universitetlarning marketingni boshqarish jarayonini quyidagi klassik bosqichlarda tashkil etilgan:

- oliy ta'lim bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish;
- ta'lim bozoridagi marketing muhiti va unda ishtirok etuvchi subyektlarning pozitsiyasini tahlil qilish;
- talabalarni ishga joylashtirishning strategik marketing rejasini;
- ishga joylashtirishning taktik marketingi;
- mutaxassisliklar bo'yicha ishga joylashtirish ko'rsatkichlari asosida marketing samaradorligini nazorat qilish.

Afsuski, quyidagi muhim jihatlar universitetlarning marketing faoliyatida ko'zga tashlanmaydi, jumladan, marketingni boshqarish jarayonining marketing subyektlarining muayyan tuzilmalari va biznes bo'linmalari bilan bog'liqligi; korxonalar va tashkilotlarning istiqboldagi kadrlarga bo'lgan talabi, marketing menejmentida tarmoq xususiyatlari hisobga olinmaslik holatlari kabilar.

Bizga ma'lumki, marketingning an'anaviy modellari faqat universitetlarning moddiy manfaatlariga, ya'ni budjetdan tashqari mablag'larni imkon qadar ko'paytirishga qaratilgan faoliyatlarga yo'naltirilgan. Oliy ta'lim xizmatlari bozorida

raqobatning kuchayib borishi universitetlarning mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuv asosida marketing faoliyatini tashkil etish talabini qo‘yadi va u asta-sekinlik bilan majburiy shartga aylanadi. Muallif raqobatni marketing tizimlari evolyutsiyasining asosiy omili, deb hisoblaydi, bu mijozlarga yo‘naltirilgan marketing metodologiyasi doirasida iste‘molchilar xatti-harakatlarining qonuniyatlari va determinantlarini hisobga olgan holda innovatsion marketing vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni talab qiladi.

Robert Loterbornning “4C” modelidagi marketing komponentlari, strategik marketing konsepsiyasida tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilarning marketing maqsadlari emas, balki ularning iste‘molchilarining talab va ehtiyojlarining qondirilishi muhim marketing maqsadi sifatida qaralishi lozim. Mazkur konsepsiya O‘zbekiston ta‘lim tizimi oldida turgan bugungi muhim vazifalar nuqtai nazaridan, shak-shubhasiz, nihoyatda muhim ilmiy-amaliy qarashdir. Masalan, ta‘lim xizmatlari bo‘yicha brend siyosatini olib borish – ta‘lim oluvchilar tomonidan xizmatlarni to‘laqonli tan olishini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro muvofiqlashtirilgan tadbirlarni bildiradi. Shuningdek, Marketing MIKSning zamonaviy shakli sifatida “4C” elementlaridan foydalanishni nazarda chetda qoldirmaslik lozim.

“Marketingning 4C” tizimi universitetlar yoki ta‘lim muassasalari uchun moslashtirish ta‘lim xizmatlarini samarali taqdim etish va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish uchun muhim bog‘langan jihatlariga e‘tiborni qaratishni o‘z ichiga oladi. Ta‘lim tashkilotlari 4C – Iste‘molchi yechimi (Customer solution) xaridorning xarajatlari (Customer cost), qulaylik (Convenience), aloqa (Communication) kabi tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Universitet talabalarga yo‘naltirilgan ta‘limning samaradorligi universitet raqobatbardoshligi va talabalar sodiqligi asosida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra asosiy mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida talabalar uchun universitetda yaratilgan akademik, ilmiy, ma‘naviy va tashkiliy muhim (Xn) hamda bog‘liq o‘zgaruvchilar sifatida universitetning raqobatbardoshligi va talabalar sodiqligi tanlanadi (Yn).

Universitetlarning talabalarga moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun mazkur holatni baholash talab etiladi. Baholash uchun quyidagi gipotezalar shakllantirilgan:

H1-universitetning akademik faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlaydi;

H2-universitetning akademik faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish talabalarda universitetga sodiqligini oshirishni ta‘minlaydi;

H3-universitetning ilmiy faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlaydi;

H4-universitetning ilmiy faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish talabalarda universitetga sodiqligini oshirishni ta‘minlaydi;

H5-universitetning ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlaydi;


H6-universitetning ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish universitetga sodiqligini oshirishni ta‘minlaydi;

H7-universitetning tashkiliy faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlaydi;

H8-universitetning tashkiliy faoliyatini talabalarga yo‘naltirilgan shakllarda tashkil etish talabalarda universitetga sodiqligini oshirishni ta‘minlaydi;

Qo‘yilgan gipotezalarni asoslash uchun 6-rasmda keltirilgan metodologik yondashuv shakllantirilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, universitetlarning talabalarga yo‘naltirilgan marketing vositalaridan foydalanish ularning raqobatbardoshligi ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ta‘lim xizmatlari samaradorligini oshirishga olib keladi. Shunga ko‘ra, universitetlar faoliyatida “Marketingning 4C” marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun barcha faoliyatlar talabalar va manfaatdor tomonlarni tushunishga, turli segmentga moslashuvligiga hamda yaratilayotgan qiymat taklifiga ko‘ra aniqlash talab etiladi.

Gipotezalarni asoslash uchun talabalardan yig‘ilgan ijtimoiy so‘rovnoma ma‘lumotlaridan foydalaniladi. So‘rovnomada 3 mingdan ortiq respondentlar ishtirok etgan va tanlanma uchun 2900 tasi olingan. Mazkur gipotezalarni asoslash uchun PLS modelidan foydalaniladi.



6-rasm. Universitetlar faoliyatini “4C” marketing elementlari asosida baholash metodologiyasi¹⁵.

Baholash uchun so‘rovnomaga qo‘yilgan asosiy muammolar 5 balli likert shkalasi asosida aniqlanadi va ular quyidagilar:

X_1 -Akademik faoliyat (yashirin omil);

Q_1 – o‘quv dasturlarining talaba uchun moslashuvchanligi;

Q_2 – o‘quv dasturlari narxining qulayligi;

Q_3 – o‘quv dasturlarining talabaga qulayligi (qulay tanlash imkoniyati);

Q_4 – o‘quv dasturlarini bo‘yicha talabalar tushunchalari;

X_2 -ilmiy faoliyat (yashirin omil)

Q_5 – ilmiy faoliyatni talaba uchun moslashuvchanligi;

Q_6 – ilmiy faoliyatlar olib borish uchun to‘lovlar qulayligi;

Q_7 – ilmiy faoliyatlarning talabaga qulayligi (laboratoriyalar va amaliyot obyektlarining mavjudligi);

Q_8 – ilmiy faoliyatlar bo‘yicha axborot va ma‘lumotlar bazalarining mavjudligi;

X_3 - ma‘naviy faoliyat (yashirin omil)


Q_9 – ma‘naviy tadbirlarning talaba uchun moslashuvchanligi;

¹⁵ Muallif ishlanmasi

- Q₁₀ – ma’naviy tadbirlar uchun to‘lovlar qulayligi;
- Q₁₁ – ma’naviy tadbirlarning talabaga qulayligi (darslardan bo‘sh vaqtlarida tashkil etilishi);
- Q₁₂ – ma’naviy ishlar bo‘yicha axborot va ma’lumotlar olish imkoniyatining mavjudligi;
- X₄- tashkiliy faoliyat (yashirin omil);
- Q₁₃ – tashkiliy faoliyatlarning talaba uchun moslashuvchanligi;
- Q₁₄ – tashkiliy ishlar uchun to‘lovlar qulayligi;
- Q₁₅ – tashkiliy ishlarning talabaga qulayligi (hujjatlashtirish, joylashuv, kampusda harakatlanish va h.k.);
- Q₁₆ – tashkiliy masalalar bo‘yicha axborot va ma’lumotlar bazalarining mavjudligi.

SmartPLS 3.0 yo‘l diagrammalari, o‘lchov modellari va strukturaviy modellarning grafik natijalarini taqdim etadi. U nashr yoki keyingi tahlil uchun moslashtirilgan va eksport qilinadigan keng qamrovli hisobotlar va natijalarni yaratadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, TDIU talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa savollari asosida SmartPLS 3.0 dasturidan foydalanilgan holda PLS modelini olish uchun “Complete Bootstrapping” modelidan foydalanilgan.

Tanlangan tadqiqot uchun “Bootstrapping” asosida PLS modelining standart yo‘l koeffitsiyentlari bo‘yicha tuzilgan va olingan model natijalari 7-rasmda aks etgan. Mazkur model barcha omillarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi va regressiyaning eng kichik kvadratlar usuli asosida olinadigan β -koeffitsiyentlarini vizual tarzda namoyish etadi (7-rasm).



7-rasm. Universitet talabalaridan yig‘ilgan anketalar asosida olingan PLS model natijalari¹⁶.

¹⁶ SmartPLS 3.0 dasturi asosida olingan natijalar

Yo‘l koeffitsiyentlari modeldagi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning haqidagi farazlarni sinash uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar munosabatlarning mavjudligi va mustahkamligini aniqlash uchun yo‘l koeffitsiyentlarining statistik ahamiyatga ega yoki yo‘qligini (ya’ni noldan sezilarli darajada farq qiladi) tekshiradilar.

Tadqiqotda qo‘yilgan gipotezalarni asoslash uchun olingan Yo‘l koeffitsiyentlari standartlashtirilgan qiymatlari va ularning statistik ahamiyati 2-jadvalda aks etgan.

Olingan natijalarga ko‘ra $X1 \rightarrow Y1$ musbat kuchsiz bog‘lanishga ega bo‘lib, bu universitetning akademik faoliyatni talabalarga qay darajada moslashuvchanligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichning miqdoriy qiymatini ifodalaydi. Xuddi shunday universitetning akademik faoliyatining talabalarga yo‘naltirilganlik darajasining mavjud holati mazkur universitetning raqobatbardoshligini oshirishga teskari munosabatda ekanligini asoslamoqda. Ushbu holatda universitetning akademik faoliyat funksiyalari talabalar uchun yuqori moslashuvchan, biroq ta’lim sifatini ta’minlashga ega moslashuvchan emas, degan xulosaga kelish mumkin.

2-jadval

Yo‘l koeffitsiyentlari¹⁷

Mean, STDEV, T-Values, P-Values					
Bog‘lanishlar	Haqiqiy qiymat (O)	Tanlanma qiymat (M)	Standart og‘ish (STDEV)	T Statistik ((O/STDEV))	P(Qiymat)
X1 -> Y1	0,064	0,062	0,032	1,963	0,025
X1 -> Y2	-0,045	-0,049	0,023	1,936	0,027
X2 -> Y1	0,051	0,049	0,027	1,870	0,031
X2 -> Y2	-0,123	-0,126	0,020	6,038	0,000
X3 -> Y1	0,108	0,101	0,044	2,468	0,007
X3 -> Y2	-0,079	-0,080	0,022	3,529	0,000
X4 -> Y1	0,083	0,078	0,057	1,457	0,073
X4 -> Y2	-0,118	-0,110	0,055	2,148	0,016

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan xulosa qilganda raqobatbardosh oliy ta’lim tizimini shakllantirish, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi oliy ta’lim muassasalarining strategik yo‘nalishlarini “ta’lim berishni ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan” zamonaviy marketing konsepsiyasi asosida tashkil etish va xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi marketing strategiyalarini joriy etish O‘zbekistonda sohadagi islohotlarning asosiy ustuvor vazifalari sifatida qaralishi lozim.

Universitetlar taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagi 3 ta model ajratiladi: Fransuz modeli: bilimlarni o‘tkazish, kadrlar tayyorlash va sotsial status asosan ta’lim funksiyasining ustuvorligi bilan belgilanadi; Nemis modeli (Gumbolt universiteti): ilmiy tadqiqot ishlari orqali g‘oyalarni to‘plash va sotsial status ta’lim va ilmiy tadqiqotlar funksiyasining ustuvorligi bilan belgilanadi; AQSh modeli: universitetlarning rivojlanish gorizontida tijoratlashtirish, tadbirkorlik muhiti rivojlantirishga yo‘naltirilgan funksiyasi majburiy rekvizit sifatida e’tirof etiladi.

Eng zamonaviy shakli sifatida AQSh tajribasida keng qo‘llaniladigan “Flagman universitet” modeli bo‘lib, unda universitet faoliyati:

¹⁷ SmartPLS 3.0 dasturi asosida olingan natijalar.


1. Milliy va hududiy muammolarini hal qilishga tizimli yondashuv.
2. Yangi moliyaviy model asosidagi faoliyat.
3. Kuchli innovatsion ekotizim va infratuzilma sifatidagi faoliyat.
4. “Mustaqil o‘rganishga yo‘naltirilgan ta‘lim” modeli asosiga quriladi.

Uning asosiy mazmuni texnologiyalarni tijoratlashirish, tadbirkorlik va innovatsion ekotizimini yaratish, kompaniyalar tashkil qilish (Spin out), innovatsion mahsulotlarga huquqlarni boshqarish faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. Universitetlarda zamonaviy marketing konsepsiyalarini joriy qilinishi orqali ta‘lim muassasalari zamonaviy ta‘lim talablariga mos keladigan va xalqaro darajada raqobatbardosh bo‘lgan bilim yurtlariga aylanadi.

Innovatsiya va tadqiqotlarni rag‘batlantirish orqali ta‘lim muassasalari o‘z ilmiy salohiyatini oshiradilar. Bu ularning ilmiy yutuqlarini ko‘paytirish va xalqaro miqyosda tan olinishini ta‘minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarda ishtirok etish orqali talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini boyitadilar. Bu ularning kasbiy salohiyatini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotda qo‘llash orqali yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi. Bu iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya loyihalari orqali ta‘lim muassasalari turli tashkilotlar va korxonalar bilan hamkorlik o‘rnatadilar. Bu ularning aloqalarini kengaytirish va imkoniyatlarini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalardagi yutuqlar orqali ta‘lim muassasalari jahon miqyosida tan olinishga erishadilar. Zamonaviy transformatsiya konsepsiyalari doirasida innovatsiya va tadqiqotlarni rag‘batlantirish orqali ta‘lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshiradi, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini yaxshilaydi hamda iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston OTMlarini xalqaro reytinglarini oshirib borish va ularni brendini nufuzini ko‘tarish doimiy ravishda transformatsiyani talab etadi. Universitetlarda Transformatsiya markazlari faoliyatini tashkil etish orqali turli sohalardagi ta‘lim va tadqiqot ishlarini raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar orqali takomillashtirishga erishiladi. Zamonaviy universitetlarning ta‘lim modellarini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirish va talabalarning bilim olish jarayonini yaxshilashni nazarda tutadi. Shunga ko‘ra raqamli transformatsiyani amalga oshirish va joriy qilishda marketingdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Marketing jarayonlari ta‘lim muassasalarining imijini oshirish, yangi talabalarni jalb qilish va marketing strategiyasini amalga oshirish xalqaro darajada tan olinishga yordam beradi. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda marketing zamonaviy konsepsiyalari asosida TDIUning xalqaro reytinglarga kirishdagi marketing strategiyasining tashkiliy sxemasi 8-rasmda aks etgan. Bunda asosiy faoliyat sifatida universitetlarning Transformatsiya markazlari o‘zining diqqat markazini ilmiy loyihalar natijalarini amaliyotga joriy etishga hamda brend imijini oshirishga qaratilishi lozim. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashirish uchun maqsadli ilmiy loyihalarni amalga oshirish va innovatsiyalar bozorida yetakchilikni ta‘minlashga qaratilgan faoliyatlarga ustuvorlik berishni talab etadi. Shu bilan birga, marketing orqali oliy ta‘limda brending va imijni yaratish imkoniyati yanada oshadi.



8-rasm. TDIuning “Transformatsiya markazi”ni samarali faoliyati uchun marketing yechimlari¹⁸.

Ta'lim muassasasi o'zining unikal qiymatlarini, missiyasini va maqsadlarini aniqlash va ularni auditoriyaga yetkazish uchun brend strategiyasi orqali logotiplar, sloganlar va vizual identifikatsiya vositalari orqali brendni namoyon qilish, ishlab chiqishi kerak. Bu talabalar va ularning ota-onalarida kuchli taassurot qoldirishga

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

yordam beradi. Brend imijini oshirishning eng samarali strategiyalaridan biri bu “sodiqlik dasturi”dir. Sodiqlik dasturi butun umr davomida universitet bilan birga bo‘lish tamoyiliga asoslanadi.

Yaqin kelajakda universitetlarni jonli innovatsion ekotizimlar sifatida quyidagi omillarga ahamiyat qaratish asosida qayta tashkil etish mumkin:

1. Iste’dodlarning xilma-xilligi: universitetlar talabalar, tadqiqotchilar va professor-o‘qituvchilarni turli kasb va fanlardan jalb qiladi. Bu xilma-xillik innovatsiyalar uchun juda muhim bo‘lgan g‘oyalar va istiqbollarning o‘zaro changlanishiga yordam beradi.

2. Tadqiqot va ishlanmalar: universitetlar turli sohalardagi ilg‘or tadqiqotlar uchun markazdir. Ushbu tadqiqot ko‘pincha innovatsiyalarni boshqaradigan yangi kashfiyotlar, texnologiyalar va ixtirolarga olib keladi.

3. Tadbirkorlik va startaplar: ko‘pgina universitetlarda inkubatorlar, akseleratorlar va tadbirkorlik dasturlari mavjud bo‘lib, ular talabalar va professor-o‘qituvchilarning o‘z g‘oyalarini hayotiy biznesga aylantirishda qo‘llab-quvvatlaydi. Bu innovatsiyalarning rivojlanishi uchun qulay zamin yaratadi.

4. Hamkorlik va tarmoq yaratish: universitetlar akademiya, sanoat va davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi. Ushbu hamkorlik ko‘pincha innovatsiyalarga hissa qo‘shadigan hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari, qo‘shma korxonalar va texnologiyalar transferiga olib keladi.

5. Fan va ta’lim: innovatsiyalar bilim va uzluksiz o‘rganish asosida rivojlanadi. Universitetlar talabalarga kerakli ta’lim va tarbiya beradi, ularni o‘z sohalarida innovatsiyalar yaratish uchun zarur ko‘nikma va bilimlar bilan qurollantiradi.

6. Madaniy va intellektual muhit: universitetlar qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va izlanish madaniyatini rivojlantiradi. Bu muhit odamlarni mavjud me’yorlarga shubha qilish va innovatsiyalar uchun zarur bo‘lgan yangi g‘oyalarni o‘rganishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, universitetlar tadqiqot, ta’lim, hamkorlik va tadbirkorlik orqali innovatsiyalar rivojlanishi mumkin bo‘lgan ekotizimni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Klassik marketing konsepsiyalarining markazida doimiy ravishda 4P marketing aralashmalaridan raqobatda ustunlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyat ustuvorlik qilgan. Zamonaviy marketing nazariyalari imkon qadar korxonalar o‘zlari uchun qo‘shilgan qiymat yaratishga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirgan. Zamonaviy marketing konsepsiyalari esa mijozlarga qiymat yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatlar va strategik maqsadlar asosida, raqobat muhitining ta’siri va ijtimoiylashuv jarayonlari natijasida shakllangan yangi yondashuv sifatida qaralishi lozim.

2. Oliy ta’lim xizmatlari bozoridagi so‘ngi tendensiyalar va xorijiy nufuzli universitetlarning marketing faoliyatini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvlarini o‘rganish asosida oliy ta’lim muassasasining marketing faoliyatini boshqarishga

yangicha yondashuvda qarash talab etilmoqda. Shunga ko'ra oliy ta'lim muassasasining marketing faoliyatini boshqarishga metodologik jihatdan muassasaning xalqaro nufuzini tizimli ravishda oshirib borish va brend imijini yaratishga qaratilgan maqsadli marketing harakatlari majmui sifatida qaralishi lozim.

3. O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlanish darajasiga erishish uchun oliy ta'lim xizmatlari sohasi ham mutanosib rivojlantirish talaba etiladi. Bunday jarayonda ta'lim nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham rivojlanishi va ta'lim sifatida xalqaro andozalarga moslashtirilishi lozim. O'zbekiston jahon mamlakatlari orasida ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha o'ziga xos bo'lgan drayverlarga ega bo'lib, tarixiy shakllangan an'analar, yoshlarni ilmga olishga bo'lgan ishtiyoqining yuqoriligi asosiy omillar hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'limning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlashda: raqobat ustunligi, mehnat bozori, moliyalashtirishni yanada takomillashtirish va homiylikni jalb qilish, iqtidorli o'qituvchilar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, uzoq muddatli barqarorlik va rivojlanish, xalqarolashtirish va global reytinglar, bitiruvchilarni jalb qilish va OTM bilan networking, hamkorlik va sheriklik, moslashuvchanlik va chidamlilik kabi tamoyillar keltirilgan bo'lib, kuchli raqobat sharoitida OTMda innovatsion marketing faoliyatini boshqarishni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

5. Oliy ta'limning sifatida universitetni bir qator ixtisoslashtirilgan OTMlar o'z o'rnini egallaydi. O'zbekistonning bir nechta yetakchi universitetlari iste'molchining OTMga bo'lgan talabi uning ilmga yo'naltirilgan talabini qondirishga qaratilgan. Universitetning raqobatbardoshligi uning iste'molchilar orasida tan olingan innovatsion faoliyati va imiji orqali raqobatbardosh universitetlar orasida ustunliklari bilan ajralib turishini ta'minlovchi marketing faoliyatini tashkil etishga yuqori ahamiyat qaratilishi lozim qaratilishi talab etiladi.

6. Jahonda reyting yuqori bo'lgan universitetlar tajribalaridan, jumladan AQShning nufuzli Garvard, Massachusetts texnologiya instituti va Stenford kabi universitetlarida innovatsion marketingni shakllantirishga yuqori ahamiyat qaratilgan. Universitet imijini oshirish, xalqaro talabalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish universitetlar marketing faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanib, innovatsiyalar bozorida yetakchilikni ta'minlashga qaratilgan marketing strategiyalari asosida rivojlanish ustuvor yo'nalish sifatida tanlangan.

7. Universitetlarning zamonaviy marketing konsepsiyalari sifatida munosabatlar marketingi, hamkorlik marketingi, raqamli marketing, fikrlar yetakchiligi va PR kabi strategiyalardan foydalanishi asosida ta'limni ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan holda tashkil etish, universitetlarning asosiy innovatsiyalar yaratishga va ularni faol tijoratlashtirishga erishish imkoniyatlari kengayib borishga imkon beradi.

8. Zamonaviy universitetlarning ta'lim xizmatlari bozoridagi strategik yo'nalishlarga mos keluvchi marketing funksiyalarini tizimlashtirish natijalaridan ma'lum bo'ladiki, marketingni boshqarish funksiyalarining integratsiyasi "Universitet — ta'lim dasturlari – bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi" asosida tashkil etilishi ilmiy-innovatsion faoliyatlarga yo'naltirilgan OTMlarning xalqaro nufuzi, raqobatbardoshligi va o'ziga xos imijini yuqori darajada shakllantirishga imkon beradi.

9. Zamonaviy universitetlarda o‘quv va ilmiy-tadqiqot funksiyalarini faqat kadrlar tayyorlashga emas, qo‘shimcha ravishda mamlakat taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqishi, innovatsiyalar yaratishi va ilmiy ishlarni maqsadli tijoratlashtirish orqali tadbirkorlik funksiyalariga yuqori ahamiyat qaratish orqali raqobatda ustunlikni ta‘minlashi lozim. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan universitetlar rahbariyati va xodimlarining yangi tendensiyalarni idrok etishi va qabul qilishga tayyorligiga bog‘liq. Shunga ko‘ra, OTMlarning marketing faoliyati nafaqat mehnat bozoriga, balki innovatsiyalar ekotizimlarida ham munosib faoliyatni ta‘minlashi lozim.

10. Universitetlar kadrlar tayyorlash va mehnat bozorida munosib faoliyati bilan birga innovatsiyalar bozorida faolligini oshirish orqali akselerator samarasi yuzaga chiqadi. Bunda universitetlarning asosiy roli real sektordagi asosiy innovatsion muammolarni hal qilish va shakllangan talabni o‘z vaqtida samarali qondirishdir. Universitetlarning zamonaviy marketing menejmentida (g‘oya – innovatsiya – tijoratlashuv- diffuziya)larga moslashuvchan funksional vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyat alohida tarkibiy bo‘linma sifatida shakllantirilishi va uning asosiy faoliyati ilmiy-innovatsion mahsulotlar bozorida maqsadli marketing harakatlarini amalga oshirishi lozim.

11. Ta‘lim, fan va ishlab chiqarish” integratsiya tizimini rivojlantirishning zaruriyati universitetlar va korxonalarda integratsiya jarayonlarini izchil mustahkamlash, universitetning ichki xilma-xilligi (talabalar va o‘qituvchilarning ta‘lim trayektoriyalari amalga oshiriladigan obyektiv muhit va kafedralar profillarining tarkibiy xilma-xilligi, boshqaruv va tashkiliy tuzilmalar; axborot xilma — xilligi va boshqalar) va tashqi muhitning xilma-xilligi (ilmiy-texnik taraqqiyot, bozor, ijtimoiy ehtiyojlar (buyurtmalar), madaniyat, korxonalar turlari, firmalar, uyushmalar va universitet bitiruvchilari ishlashi kerak bo‘lgan boshqa tashkiliy tizimlar va boshqalar) kabi omillarga yuqori ta‘sirchanligini oshirish uchun innovatsiyalarni samarali ravishda tijoratlashtirish lozim.

12. Universitetlarning talabalarga yo‘naltirilgan marketing faoliyati natijalarini PLS modeli asosida baholash natijalari shundan dalolat beradiki, o‘quv jarayonlarini talabalarga yuqori moslashuvchanligini oshirish ta‘lim sifati pasayishi kuzatiladi. Aksincha ilmiy-innovatsion faoliyat esa yuqori ijobiy natijalarni qayd etdi. Shunga ko‘ra, ta‘lim sifati oshirishga qilinadigan asosiy faoliyatdan istiqbolda branding va innovatsiyalar bozorida o‘zi imijini ta‘minlovchi marketing strategiyalarini ishlab chiqishni talab etadi.

13. Oliy ta‘lim muassasalarining xalqaro miqyosda nufuzini oshirib borish, reytinglarda munosib o‘rnini egallashi va xorijiy talabalarni keng miqyosda jalb qilishga yo‘naltirilgan faoliyatlar samaradorligini oshirish uchun “Marketing 4.0” transformatsiya konsepsiyalaridan foydalanish talab etiladi, bunda milliy ta‘lim muassasalarining brend imiji va ilmiy loyihalar natijalarini amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirishga yuqori ahamiyat qaratilishi lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ШАМШИЕВА НАРГИЗАХОН НОСИРХЎЖА ҚИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ
МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**08.00.11 – Маркетинг
08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент — 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi

Oliy ta‘lim muassasalarida marketing faoliyatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Шамшиева Наргизахон Носирхўжа қизи

Совершенствование методологии организации маркетинговой деятельности в высших образовательных учреждениях 33

Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja kizi

Improving the methodology of organizing marketing activities in higher education institutions..... 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 75

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ШАМШИЕВА НАРГИЗАХОН НОСИРХЎЖА ҚИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОРГАНИЗАЦИИ
МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**08.00.11 – Маркетинг
08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2024

Тема докторской диссертации зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией (регистрационный номер B2024.3.DSc/Iqt68).

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале “Ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Ахунова Гулчехра Назаровна**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Бекмуродов Адхам Шарипович**
доктор экономических наук, профессор

Абдуллаев Илём Султонович
доктор экономических наук, профессор

Режапов Хайрилло Хикматуллаевич
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Андижанский государственный университет**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный №____). (Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: admin@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024 года.
(протокол реестра №__ от “___” _____ 2024 года).

Г.К. Абдурахманова

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней д.э.н., профессор

О. Дж. Джурабаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., доцент

Т.А. Акрамов

Председатель Разового научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях резкого обострения конкуренции на мировом трудовом и товарном рынках, когда специалисты выступают главным фактором качественного развития отраслей экономики приоритетное внимание уделяется устойчивому развитию и эффективному управлению высшими образовательными учреждениями, ответственными за подготовку кадров в полном соответствии с предстоящими требованиями. По данным Всемирного банка, “если в 2000 году в высших образовательных учреждениях мира получали образование в общей сложности 100 миллионов студентов, то сегодня этот показатель составляет около 220 миллионов студентов”¹⁹. В настоящее время к числу актуальных проблем повышения эффективности целенаправленного развития и управления сферой высшего образования относятся стратегии, направленные на обеспечение конкретного целевого и устойчивого развития, включая стратегии управления инновационной маркетинговой деятельностью.

Среди исследований в области совершенствования организационно-экономических механизмов повышения эффективности целенаправленного развития и управления системой высшего образования в мире приоритетными являются исследования, посвященные стратегиям управления инновационной маркетинговой деятельностью. При этом особое значение уделяется таким направлениям исследований, как совершенствование маркетинговой деятельности по повышению конкурентоспособности системы образования за счет повышения качества образования и эффективного управления по современным технологиям, оценки значимости образования в обеспечении экономического роста по маркетинговым результатам, совершенствование маркетинговой методологии обеспечения занятости выпускников на основе рыночных механизмов, эффективное управление маркетинговой деятельностью.

В ходе построения нового Узбекистана проводятся реформы для перехода на качественно новый этап развития системы высшего образования, повышения качества образования на основе передовых образовательных технологий, подготовки конкурентоспособных кадров, обладающих самостоятельным мышлением, современными знаниями и высокими морально-этическими качествами. В стратегии “Узбекистан-2030” определены такие задачи, как “расширение охвата высшим образованием”, “совершенствование организационно-управленческой деятельности высших образовательных учреждений”, “внедрение кластерной системы “предприятие – вуз — научная организация” и “поддержка научных исследований и инновационных инициатив”²⁰. Для эффективной реализации поставленных задач целесообразным является расширение сферы научных исследований в области повышения конкурентоспособности высших образовательных учреждений (ВОУ), развития человеческого капитала на основе требований рынка труда,

¹⁹ <https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation#1>

²⁰ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года “О Стратегии “Узбекистан-2030”

развития здоровой конкурентной среды и повышения привлекательности институтов, дифференцированного применения цифровых и современных образовательных технологий в учебном процессе, совершенствования научно-методологических основ управления инновационной маркетинговой деятельностью высшего образования.

Данное диссертационное исследование в определенной мере способствует выполнению задач, намеченных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, №УП-5687 от 7 марта 2019 года “О систематизации мер по улучшению позиций Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах”, №УП-5763 от 11 июля 2019 года “О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования”, №УП-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, №УП-158 от 11 сентября 2023 года “О Стратегии “Узбекистан-2030”, в постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-4358 от 17 июня 2019 года “О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки востребованных квалифицированных кадров и развитию научного потенциала в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека в 2019-2023 годах”, №ПП-4391 от 11 июля 2019 года “О мерах по внедрению новых принципов управления в систему высшего и среднего специального образования”, №ПП-60 от 24 декабря 2021 года “О дополнительных мерах по обеспечению академической и организационно-управленческой самостоятельности государственных высших образовательных учреждений”, в постановлениях Кабинета Министров №467 от 7 июня 2019 года “О мерах по совершенствованию порядка определения рейтинга высших образовательных учреждений”, №967 от 3 декабря 2019 года “О поэтапном переводе высших образовательных учреждений на систему самофинансирования” и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²¹. Исследования по совершенствованию методологии организации маркетинговой деятельности высших образовательных учреждений проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, таких как Johns Hopkins University, Harvard University, Framingham State University

²¹ В диссертационной работе использован ряд зарубежных научных исследований и научных работ ученых-экономистов: The Digitalization of the World: From Edge to Core. An IDC White Paper-#US44413318. International Data Corporation; Nov 2018, www.itu.int, www.forrester.com, www.capgemini.com, mitsloan.mit.edu, eng.kist.re.kr, www.cnet.com, www.nielsen.com, www.kantar.com, accenture.com, www.mckinsey.com, www.ipsos.com, www.gfk.com, www.bcg.com, www.ieee.org, www.ibm.com/consulting, www.microsoft.com, www.sap.com, www.oracle.com

(США), Cambridge University (Великобритания), Beijing Institute of Fashion Technology (Китай), Vikram University (Индия), Tamil Nadu Agricultural University (Индия), Kyoto University (Япония), Comilla University (Бангладеш), Yildiz Technical University (Турция), Ташкентский государственный экономический университет (Узбекистан).

